



“SAMARQAND SHAHAR GERBINING MUALLIFI YOXUD GRIGORIY  
ULKO IJODINING O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN‘ATIDAGI O‘RNI”  
(“Samarqand” davlat muzey-qa‘riqxonasi rangtasvir durdonalari turkumidan)

Daliyeva Navbaxor Qarshiyevna,  
“Samarqand” davlat muzey-qa‘riqxonasi katta ilmiy xodimi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606221>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mashhur rassom G. I. Ulko ijodi, uning rangtasvir san‘atidagi o‘ziga xos o‘rni, asarlaridagi yo‘nalishlar, uslublar, ilgari surilgan asosiy g‘oyalar, Samarqand davlat muzey-qa‘riqxonasi fondlarida saqlanayotgan Ulko ijodiga mansub rangtasvir asarlari, shuningdek, rassom ijodiy faoliyatining takrorlanmas jihatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ekaterina, Kuznetsk metallurgiya kombinati, Xarkov badiiy instituti, Samarqand shahar gerbi, portret san‘ati, peyzaj, “Ma‘dan izlovchilar”, “Tiriklik va o‘liklik”, “Natyurtmort”, “Dialog”, “Buyuk savdo yo‘li”.

**Annotation:** This article examines the work of the famous artist G. I. Ulko, his special place in the visual arts, the trends and styles represented in his works, the main ideas put forward, as well as paintings belonging to Ulko's work and stored in the funds of the Samarkand State Museum-Reserve. In addition, the unique aspects of the artist's creative activity are analyzed.

**Keywords:** Ekaterina, Kuznetsk Metallurgical Plant, Kharkov Art Institute, coat of arms of the city of Samarkand, portrait art, landscape, “Ore Seekers”, “Living and dead”, “Still life”, “Dialogue”, “Great Trade Way”.

Grigoriy Ulko 1925-yil 4-aprelda Rossiyaning Novosibirsk viloyati Karasuk tumanidagi Ekaterina qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning oilasi 1912-yilda Poltava guberniyasining Karlovka qishlog‘idan Sibirga ko‘chib kelgan. Ulko oilasi 1930-yilda Novokuznetsk shahriga ko‘chib o‘tgan. Bu yerda Grigoriy Ulko o‘n sakkiz yoshga to‘lguniga qadar Kuznetsk metallurgiya kombinati sexlaridan birida chilangar sifatida faoliyat yuritgan. 1943-yil u harbiy xizmatga chaqiriladi. Biroq o‘sha yilning kuzida sog‘lig‘i sababli demobilizatsiya qilinib, zavodga qaytariladi.

1946-yilda Samarqandga keladi va Samarqand badiiy bilim yurtining ikkinchi kursiga qabul qilinadi. Mazkur ta‘lim muassasasida unga taniqli rassom, O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi Pavel Petrovich Benkov saboq bergan. 1949-yilda Pavel Benkov vafotidan so‘ng bilim yurti Toshkent shahriga ko‘chiriladi va Ulko ta‘limni shu yerda davom ettiradi. Oradan uch yil o‘tib, u Xarkov shahriga ko‘chib o‘tadi hamda Xarkov badiiy institutining rangtasvir bo‘limida tahsil oladi.

1957-yilda u institut rahbariyatining xohishiga qarshi chiqib, diplom ishini bajarish uchun Xorazmga yo‘l oladi. Bu yerda u Sergey Pavlovich Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tarkibida rassom sifatida faoliyat yuritadi. Keyingi bir necha yil davomida Ulko ko‘plab arxeologik ekspeditsiyalarda ishtirok etib, Kiyev, Samarqand va Novokuznetsk shaharlarida yashaydi. Nihoyat, 1960-yilda Samarqandga butunlay ko‘chib o‘tadi. 1962-1968-yillarda Ulko Moskva shahridagi sirtqi dizayn maktabida tahsil oladi.



Aynan shu yillarda uning o‘ziga xos badiiy uslubi - ikonalar va Sug‘diyona freskalarini eslatuvchi monumental tasviriy yechim, aniq chizgi, mahalliy va to‘yingan ranglar, mazmunning umumlashtirilgan va chuqur talqini to‘liq shakllanadi. Ulko o‘z ijodida hayot va xotira, madaniyatlararo muloqot, avlodlar almashinuvi kabi umuminsoniy masalalarga murojaat qiladi. Rassom ijodida insoniyat va vaqt munosabati, inson va makon aloqasi, shuningdek, fan va ijod, an‘ana va yangilik o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik kabi falsafiy muammolar muhim o‘rin tutadi. 1975–1985-yillarda Ulko Rassomlar Ittifoqi tarkibidagi Yosh rassomlar birlashmasiga rahbarlik qiladi, Samarqand badiiy bilim yurtida dars beradi. Uning ko‘plab yirik asarlari muzeylar, tashkilotlar va mashhur shaxslar tomonidan buyurtma asosida yaratiladi.

Ulko Samarqandda yashab ijod qilgan taniqli san‘atkorlardan biri sifatida ko‘plab monumental san‘at asarlari, yodgorliklar va badiiy kompozitsiyalar muallifi hisoblanadi. Ulko biografiyasida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan muhim yo‘nalishlardan biri 1994 yilda Samarqand shahar gerbi ustida olib borgan ilmiy tadqiqotidir. Gerb kompozitsiyasida oq qanotli bars timsoli, Zarafshon daryosi va yetti qirrali moviy yulduz tasvirlangan. Ekspozitsiyada gerbning asl eskizi hamda muallifning izohli yozuvlari namoyish etilgan bo‘lib, ular rassomning ramziy tafakkuri va konseptual yondashuvini ochib beradi. Gerbni yaratishda u qadimgi Sug‘d san‘ati elementlari, sharq mifologiyasidagi qanotli mavjudotlar tasvirlari, Samarqandning tarixiy ramzlari asosida badiiy kompozitsiya yaratadi. Ulko tomonidan ishlab chiqilgan bir necha variantlar ichidan **qanotli qoplon tasviri** eng muvaffaqiyatli deb topilgan va rasmiy gerb sifatida qabul qilingan. Samarqand gerbi Samarqand shahrining rasmiy geraldik ramzidir. Ba‘zan bu gerb O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatining ramzi sifatida ham qo‘llanadi. Gerb 1994-yil 15-iyulda xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi sessiyasida G. I. Ulko loyihasi asosida qabul qilingan va tasdiqlangan. Uning ijodiy ishlari Samarqandning madaniy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Grigoriy Ilich Ulko 1999-yil 8-aprelda Samarqandda vafot etgan.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, uning asarlarida faqat badiiy ma‘no emas, balki jamiyat, tarix va madaniyat bilan bog‘liq murakkab mavzular - o‘zlikni ifoda etish, tarixiy xotira va zamonaviylik saviyasi ham o‘z ifodasini topadi. Bu epistemologik kontekst rassomning ijodini regional san‘at tarixida asrab qoladigan ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qadrlaydi. G.I. Ulko ijodi realistik tasviriy uslub, maishiy (janrli) kompozitsiyalar, portret san‘ati, peyzaj (tabiat manzaralari), tarixiy va ijtimoiy mavzular kabi yo‘nalishlar bilan tavsiflanadi. Shu jihatlar rassom ijodining milliy hayotni aks ettirish, inson mehnatini ulug‘lash va realizm an‘analarini davom ettirishga xizmat qilinganini ko‘rsatadi. Uning asarlaridan namunalar O‘zbekistonning ko‘plab muzeylarida saqlanadi va turli ko‘rgazmalarda namoyish etib kelinadi. Bu uning san‘at tarixida minosib o‘ringa ega ekanligidan dalolat beradi. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi fondlari va ekspozitsiyalarida ham G. I. Ulko ijodiga mansub eng nodir asarlar joy olgan bo‘lib, bu rangtasvir



asarlari o‘z yo‘nalishi, uslubi, rang jihatlar bilan alohida ajralib turadi. Xususan, G.I. Ulkoning Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi rangtasvir fondida saqlanayotgan “Ma‘dan izlovchilar” “Iskateli” kartinasi, “Natyurmort”, “Tiriklar va o‘liklar”, “Buyuk savdo yo‘li” “Великий торговый путь”, “Dialog” va boshqa ko‘plab asarlari yaratilishi, aks etgan, ilgari surilgan asosiy g‘oyalari, rang uslublari, yo‘nalishi kabi jihatlar bilan tomoshabinlar diqqat e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. Ulko ijodidagi “Ma‘dan izlovchilar” “Iskateli” kartinasi XX asr tasviriy san‘atida keng tarqalgan realistik yo‘nalish asosida yaratilgan bo‘lib, unda inson mehnati, izlanish jarayoni va yangi boyliklarni kashf etish g‘oyasi ilgari surilgan. Kartina insonning tabiat bilan o‘zaro munosabati hamda jamiyat taraqqiyotida mehnatning ahamiyatini tasvirlashga qaratilgan. Samarqand muzeyidagi mazkur kartinada oldinda oq rangli ko‘ylak kiygan, boshiga rangli bog‘ich taqqan yo‘lboshchi harakatlanmoqda. Uning ortidan esa orqalariga ryukzak osgan, charchagan qiyofadagi izlovchilar guruhi ergashib kelmoqda. Kartinada to‘rt erkak va bitta qizdan iborat izlovchilar tasvirlangan [1, B. 162]

Kartinaning asosiy mazmuni **ma‘dan yoki foydali qazilmalarni izlayotgan geolog va ishchilar faoliyati** bilan bog‘liq. Asarda tasvirlangan qahramonlar yangi konlarni topish uchun izlanayotgan insonlar sifatida talqin qilinadi. Rassom bu orqali insonning ilmiy va amaliy izlanishini, tabiat boyliklarini o‘rganish jarayonini, mehnatning jamiyat taraqqiyotidagi rolini ko‘rsatishga harakat qilgan. G.I. Ulkoning “Ma‘dan izlovchilar” kartinasi kompozitsion jihatdan figurali sahnaga asoslangan, rang tasviri orqali tabiiy muhit va ruhiy kayfiyatni ochib beradi. Mazkur asar rassom ijodining mehnat, izlanish va taraqqiyot g‘oyalarini aks ettiruvchi muhim badiiy namunalardan biri hisoblanadi.

Grigoriy Ulko o‘z ijodida ko‘pincha umuminsoniy falsafiy muammolar hayotning mazmuni, tarixiy xotira, avlodlar davomiyligi va insoniyatning o‘tmishi bilan aloqasi kabi mavzularni ko‘taradi. Rassom ijodida inson va vaqt, hayot va o‘lim o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga bag‘ishlangan, falsafiy mazmunga ega bo‘lgan ana shunday muhim asarlardan yana biri uning “Tiriklar va o‘liklar” kartinasi bo‘lib, unda insoniyat hayoti, xotira, urush oqibatlari va avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlik kabi falsafiy g‘oyalar ifodalangan. Asar rassomning urushni boshdan kechirgan avlod vakili bo‘lishi, tarix va arxeologiyaga qiziqishi, insoniyat tarixining davomiyligi haqidagi falsafiy qarashlari ta‘sirida yaratilgan. San‘atshunoslar ushbu asarni ramziy (simvolik) kompozitsiya sifatida talqin qilishadi. Unda ikki asosiy g‘oya ifodalanadi.

Kartinadagi “tiriklar” va “o‘liklar” obrazi orqa rassom insoniyat tarixidagi urushlar, qurbonlar, xotira va unutish kabi muammo va hissiyotlarni ko‘rsatib bergan. Asarda o‘tmishdagi insonlar xotirasi hozirgi avlod hayotida davom etishi, xotiraning abadiyligi va uning kelajak avlodlar tomonidan ulug‘lanishi g‘oyasi aks etadi. Shuning uchun kartina faqat o‘lim haqida emas, balki tarixiy xotira va insoniyat davomiyligi haqidagi asar hamdir. “Tiriklar va o‘liklar” kartinasi hayot va o‘lim, o‘tmish va hozirgi zamon, tirik avlod va tarixiy xotira o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni



ko‘rsatadigan falsafiy mazmundagi asardir. Rassom insoniyat tarixini unutmashlik va o‘tmish qurbonlarini yodda saqlash g‘oyasini badiiy obrazlar orqali ifodalagan. Realistik g‘oyalar, ramziy kompozitsiya kabi yo‘nalishlar bilan bir qatorda natyurmort yo‘nalishidagi asarlar ham tasviriy san‘atning muhim janrlaridan biri hisoblanadi. Natyurmort yo‘nalishida ijod qilish rassomning badiiy tafakkuri, kompozitsion fikrlashi va ranglar bilan ishlash mahoratini rivojlantiradi. Ushbu janr oddiy jonsiz buyumlar orqali chuqur estetik va ma‘naviy mazmuni ifodalash imkonini beradigan muhim tasviriy san‘at yo‘nalishidir.

G.I. Ulko rangtasvirning ushbu janrida ham ko‘plab asarlar yaratgan bo‘lib, ishlagan asarlarida asosan, oddiy buyumlar orqali rangtasvirning estetik imkoniyatlarini ochib beradi. Uning muzey ekspozitsiyalarida namoyish etib kelinayotgan “Natyurmort” nomli asari mazkur yo‘nalishda 1980 yilda yaratilgan bo‘lib, unda oddiy buyumlar stol ustiga joylashtirilgan, rassom ularning shakli, materiali, rang uyg‘unligi va yorug‘lik ta‘sirini badiiy vositalar orqali ko‘rsatishga harakat qilgan [3, B. 9].

Bu asar realizm an‘analariga yaqin bo‘lib, buyumlarning tabiiy ko‘rinishini saqlagan holda badiiy ifoda yaratadi. Bu asar tasviriy san‘at ta‘limida **kompozitsiya, rang va yorug‘likni o‘rganishda muhim namunaviy asarlardan biri** hisoblanadi.

Rassom ayrim asarlarida tarixiy yoki ijtimoiy voqealarni tasvirlash orqali ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarini ochib berishga harakat qilgan. Bu yo‘nalishda jamiyat taraqqiyoti, mehnat qahramonlari, davr ruhini aks ettiruvchi kompozitsiyalar yaratilgan. “Buyuk savdo yo‘li” (“Великий торговый путь”) rassom G.I. Ulko tomonidan yaratilgan tarixiy-janrdagi ana shunday rangtasvir asarlardan biri bo‘lib, u buyuk ipak yo‘li orqali olib boriladigan savdo aloqalarini badiiy tarzda aks ettiradi. Asar 100 X 80 o‘lchamda bo‘lib, unda uzoq cho‘l yo‘llari ularda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar, karvonlar shuningdek, karvon yo‘llari orqali amalga oshiriladigan savdo aloqalarining o‘ziga xos yutuqlari va qiyinchiliklari tasvirlangan [2, B. 117]

Kartinning markaziy g‘oyasi Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalarni ko‘rsatishdir. Bu orqali rassom tarixiy savdo yo‘llarining insoniyat taraqqiyotidagi rolini yoritib bergan.

Mazkur kartina bir nechta ilmiy-tarixiy g‘oyalar - savdo yo‘li orqali savdo markazlari bo‘lgan shaharlarning bir-biri bilan bog‘lanishi, Markaziy Osiyoning qadimdan sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lganligini, karvon yo‘llari madaniyatlar almashuvining asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilishi kabilarni ifodalaydi. Shu sababli asar nafaqat badiiy, balki tarixiy-ma‘rifiy ahamiyatga ega ekanligi bilan ham alohida ajralib turadi. San‘atshunoslar bunday tarixiy kartinalarni “tarixiy-rekonstruktiv tasviriy san‘at” turiga kiritadilar. Bu turdagi asarlar tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar, etnografik ma‘lumotlarga asoslanib yaratiladi.

G. I. Ulko O‘zbekiston tasviriy san‘atida **falsafiy-ramziy rangtasvir** yo‘nalishini rivojlantirgan rassomlardan biridir. Uning ijodida insoniyat tarixi, vaqtning uzluksizligi, kosmik makon va turli madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalar



markaziy mavzu sifatida talqin qilinadi. Ulko uchun tasviriy san’at faqat voqelikni aks ettirish vositasi emas, balki **insonning koinotdagi o’rni haqida falsafiy mushohada** yuritish vositasidir. Shu sababli uning asarlarida realistik tasvir bilan birga ramziy obrazlar, umumlashtirilgan obrazlar va monumental kompozitsiyalar uchraydi. Ulko asarlarida inson ko‘pincha koinotning bir qismi sifatida tasvirlanadi. Rassom inson obrazini keng fazoviy fon, osmon, kosmik shakllar yoki mavhum makon bilan uyg‘un holda beradi. Bu orqali insoniyatning tabiat va kosmos bilan uzviy bog‘liq ekanligi, inson faoliyati global va kosmik jarayonlarning bir qismi hisoblanishi hamda koinotning inson tafakkuri uchun cheksiz makon sifatida talqin qilinishi kabi g‘oyalar ifodalanadi. Ana shu jihatdan Ulko ijodi XX asr tasviriy san’atida keng tarqalgan kosmik romantizm va falsafiy modernizm tendensiyalari bilan hamohangdir. “Dialog” (1983) G.I. Ulko ijodidagi falsafiy mazmunga ega ana shu jihatlarni o‘zida mujassam etgan rangtasvir asarlaridan biri bo‘lib, unda insoniyat, vaqt, kosmos va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat ramziy obrazlar orqali ifodalangan [4,B. 11]

Asar Samarqand san’at maktabining intellektual va monumental rangtasvir an’analarini aks ettiradi. Asarda rassom inson va olam o‘rtasidagi ichki bog‘lanishni tasviriy obrazlar orqali ochishga harakat qiladi. Ulko ko‘pincha insoniyat tarixini kosmik miqyosda talqin qiladi. “Dialog” kompozitsiyasida ham inson obrazlari **abadiy vaqt bilan muloqot qilayotgan subyekt** sifatida ko‘rsatiladi.

G.I. Ulko XX asr O‘zbekiston rangtasvir san’atida **falsafiy mazmunga ega monumental kompozitsiyalar** yaratgan muhim rassomlardan biridir. Uning ijodi Samarqand rassomlik maktabining shakllanishi va rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Ulko rangtasvirida **Sharq badiiy an’analari** (qadimgi devoriy rasmlar, miniatyura rang uyg‘unligi, dekorativlik) hamda **zamonaviy monumental rangtasvir uslubi** o‘zaro sintez qilinadi. Shu sababli uning asarlari milliy san’at an’analari bilan zamonaviy badiiy tafakkurni uyg‘unlashtirgan muhim ijodiy tajriba sifatida baholanadi. Rassomning badiiy uslubida kompozitsiyaning monumental tuzilishi, ranglarning chuqur ramziy ma’nosi va inson obrazining umumlashtirilgan ifodasi ustuvor hisoblanadi. Bu xususiyatlar uning asarlariga **falsafiy va konseptual mazmun** bag‘ishlaydi. Uning asarlari XX asr o‘rtalari va ikkinchi yarmi davridagi badiiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, realizm an’analari va milliy mavzularning uyg‘unligi bilan ajralib turadi.

Grigoriy Ilich Ulko O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixida muhim o‘rin egallagan rassom, pedagog va madaniyat arboblardan biri sifatida qadrlidir. U XX asrning ikkinchi yarmida mamlakat tasviriy san’ati rivojiga katta hissa qo‘shgan. O‘z ijodi orqali milliy hayot manzaralarini, inson mehnatini hamda jamiyatning ijtimoiy-madaniy muhitini badiiy ifodalashga intilgan san’atkor sifatida tanilgan. Rassomning ijodiy faoliyati ayniqsa Samarqand shahri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u bu hududda tasviriy san’at maktabining shakllanishi va rivojlanishida faol ishtirok etgan. Uning asarlarida inson faoliyati, mehnat jarayonlari, zamonaviy hayot ritmi hamda ijtimoiy jarayonlar aks ettiriladi. Rassomning ko‘plab asarlari mehnatkash inson



obraziga bag‘ishlanadi. Ularning kompozitsiyasida dinamika, harakat va hayotiylik ustuvor o‘rin egallaydi. Bu jihatlar rassom ijodining realizm an‘analariga tayanishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, rassom ijodida monumental va dastgoh san‘ati uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Ulko turli mavzularda yaratilgan kompozitsiyalar orqali tarixiy va zamonaviy voqealarni badiiy talqin qilgan. Ulko ijodining yana bir muhim jihati shundaki, u O‘zbekiston tasviriy san‘atida milliy ruh va mahalliy muhitni tasvirlashga alohida e‘tibor bergan. Rassom o‘z asarlarida Markaziy Osiyo tabiatining rang-barangligi, qadimiy shaharlarning me‘moriy qiyofasi va xalq hayotiga xos jihatlarni aks ettirishga harakat qilgan. Bu esa uning asarlarini nafaqat badiiy, balki tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan san‘at namunalari aylantiradi.

Bundan tashqari, Grigoriy Ilich Ulko nafaqat ijodkor rassom, balki pedagog sifatida ham tasviriy san‘at rivojiga katta hissa qo‘shgan. U yosh rassomlarni tarbiyalash, san‘atga qiziqish uyg‘otish hamda yangi ijodiy avlodning shakllanishiga yordam berishda faol ishtirok etgan. Shu sababli Ulko ijodi nafaqat individual badiiy meros sifatida, balki tasviriy san‘at maktabining rivojlanishida muhim bosqich sifatida ham baholanadi. Rassomning madaniy sohadagi faoliyati ham alohida e‘tiborga loyiqdir. U turli ko‘rgazmalar, madaniy loyihalar va san‘at tadbirlarida faol qatnashib, tasviriy san‘atning keng ommaga yetib borishiga hissa qo‘shgan, Samarqand shahrining madaniy qiyofasini shakllantirishda ham uning xizmatlari katta bo‘lgan.

Shu sababli G.I. Ulko ijodi O‘zbekiston tasviriy san‘atining rivojlanishida muhim bosqichlardan biri bo‘lib, uning badiiy merosi milliy madaniyat tarixida alohida ahamiyat kasb etadi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 11-fond kirim kitobi.
2. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 14-fond kirim kitobi.
3. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 19-fond kirim kitobi.
4. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 20-fond kirim kitobi.
5. Shodiyeva S “Rangtasvir” Buxoro. 2022 y.
6. O‘zbekiston tasviriy san‘at durdonalari. T. 2024 y.